TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 294-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 8-oktabrdagi 692-10-0-Q/24-son qarorini ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentabrdagi “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 338-son qarori ijrosi yzasidan Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 8-oktabrdagi 692-10-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 8- oktabrdagi 692-10-0-Q/24-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentabrdagi 338-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur (keyingi o‘rinlarda — Milliy dastur) tasdiqlanligi inobatga olinsin.

Ushbu qaror bilan Viloyatda chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur tasdiqlanganligi hamda shu asosida ish tashkil etilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Milliy dasturga asosfn:

chang va qum bo‘ronlari oldini olish va oqibatlarini yumshatishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda hududlarda yashil qoplamalarni kengaytirish;

qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etish;

chang bo‘ronlariga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

chang bo‘ronlariga qarshi kurashishga qaratilgan ekologik ta’limni kuchaytirish.

4. Qaror bilani:

2030-yildan boshlab Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlarida joylashgan isitish va elektr energiya ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanish taqiqlanganligi, bunda 2025-yilning kuz-qish mavsumidan boshlab zaxira yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanishga faqat Vazirlar Mahkamasining har yili kuz-qish mavsumi oldidan chiqariladigan qarori asosida ob-havo va texnologik rejimlardan kelib chiqqan holda yo‘l qo‘yilishi belgilanganligi;

Toshkent shahriga tutash tumanlarda joylashgan 1,2 mingdan ortiq issiqxonalarda foydalanilayotgan ko‘mir yoqilg‘isining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatiladi hamda bunday uskunalarni o‘rnatish uchun issiqxona xo‘jaliklariga subsidiya ajratish mexanizmi joriy qilinishi;

2025-2030-yillar davomida Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlaridagi jami 441 gektar yer maydonlarida “yashil belbog‘” va “yashil bog‘lar” tashkil qilinishi;

2028-yildan boshlab “Yevro-4” standartidan past ekologik toifadagi motor yoqilg‘isidan foydalanish va sotish bosqichma-bosqich cheklanishi tartibi o‘rnatilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

5. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi (B.Eshnazarov) prokuratura organlari, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda uch oy muddatda 2025-2030-yillar davomida Toshkent shahar bilan tutash Toshkent tumani hududlarida “yashil belbog‘” va “yashil bog‘lar” barpo etish bo‘yicha dasturni ishlab chiqib, tuman hokimligiga kiritsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentabrdagi 338-sonli qarori bilan Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo‘lmas chora-tadbirlar dasturi;

Viloyat hududida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo‘lmas chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Bunda, tumanning diqqatga sazovor ko‘chalarida avtotransport vositalaridan holi hududlarni tashkil etish;

“Shahar — piyodalar uchun” shiori asosida jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishini ta’minlash;

tumanining ekologik “master-reja”sini ishlab chiqish;

sanoat korxonalarida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish va eskilarini almashtirish ishlarini tashkil etish;

mikroiqlim mo‘tadilligini ta’minlash, atmosfera havosi sifatiga ijobiy ta’sir etish maqsadida sun’iy suv havzalarini barpo etish;

atmosfera havosi bilan bog‘liq xavflar va uning salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish hamda zararli ta’sirni kamaytirishga qaratilgan ko‘rsatuvlar, ijtimoiy roliklar tayyorlash belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**